



ASAR TARJIMASIDA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNI IFODALANISHI (A.QODIRIYNING "OTKAN KUNLAR" ROMANINING INGLIZCHA TARJIMASI ASOSIDA)

M.M.Madumarov,

Qo'qon universtiteti, ingliz tili o'qituvchisi,

phone: +998 91 687 33 83

m.m.madumarov@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 51

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1164>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Ekstraliningvistik vositalar, qahramon xarakterini ochish, tarjima texnikalari, madaniy moslashuv, noverbal ifodalar, psixologik holatlar, badiiy tarjima.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning O'tkan kunlar romanining ingliz tiliga tarjima qilingan nusxasida qahramonlarning xarakterini ochishda qo'llaniigan ekstraliningvistik vositalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. O'zbek Oyimning emotsiyonal va ruhiy holatlari, uning o'g'li bilan munosabatlari va oilaviy muammolari kinetik va ekstraliningvistik vositalar orqali namoyon qilingan. Ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ikki madaniyat o'rtasidagi farqlar, milliy urf-odatlar va qadriyatlар borasidagi muammolar tarjimon Mark Riz tomonidan muvaffaqiyatlari hal etilgan. U O'zbek Oyimning shaxsiy muammollar va o'ziga xos emotsiyonal holatlarin soxta hamda yangilangan tarzda tarjimaga kiritgan. Ekstraliningvistik elementlar, jismoniy harakatlar, ishoralar va mafkuralar tarjimada xos maqsadga muvofiq shaklda berilib, asliy asarning mazmunini saqlab qolgan. Bu maqola ekstraliningvistik vositalarni tarjimada tahlil qilishning ahamiyatini yoritib, ularning tarjima jarayonidagi o'rni va qahramonlarning ichki dunyosiga ta'sirini ko'rsatadi.

Kirish. Adabiyot va tarjima o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, uning o'ziga xos uslublari va madaniyatlararo tafovutlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Tarjima jarayoni nafaqat so'zma-so'z tarjima qilishni, balki bir tilning nuanslari va uning madaniyatiga moslashtirishni ham talab qiladi. Abdulla Qodiriyn ning "O'tkan kunlar" romanı badiiy tarjima jarayonida bu talablar yanada oydinlashadi. Ushbu maqola aynan romanining ingliz tilidagi tarjimasi orqali qahramonlarning xarakterini ochishda qo'llanilgan ekstraliningvistik vositalarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Ekstraliningvistik vositalar, ya'nı jismoniy harakatlar, ishoralar, turgan joy va boshqa noverbal ifodalar, tarjima jarayonida qahramonlarning ichki holatini va emotsiyonal ta'sirini to'g'ri etkazishda alohida rol o'yndaydi. Ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida, madaniy moslashuv va tilning noverbal jihatlarini hisobga olish zarrarli yuzaga keladi. Bu maqolada, Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjima, ikki madaniyat o'rtasidagi farqlarni muvaffaqiyatlari engib o'tib, original asarning ruhini va muhim qismalarini saqlab qolish bilan birga, O'zbek Oyimining murakkab emotsiyonal holatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ingliz tiliga moslashtirishda qanday yondashuvlar qo'llanilganligi ko'rib chiqiladi. Ekstraliningvistik elementlar, jumladan, jismoniy harakatlar va ishoralar, tarjimada muvaffaqiyatlari tarzda berilgan, bu esa asar mazmunining to'liq va aniq tushunilishiga yordam beradi. Tarjima jarayonidagi ekstraliningvistik vositalarning tahlilini o'rganishing ahamiyatini yoritib, ular orqali qahramonlarning ichki dunyosini va psixologik holatlarini qanday yoritish mumkinligini ko'rsatadi. Bu orqali tarjima va madaniyatlararo muloqotning yangi imkoniyatlarini ochishga intilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Erkin Vohidovning Kecha va kunduz asarida qahramonlarning ichki dunyosi va ruhiy holatlari chuqur tahlil qilingan. Eksterlingvistik vositalar, ya'nı jismoniy harakatlar, mimikalar va hissiyotlarni aks ettiruvchi iboralar keng qo'llaniladi. Misol: "Yuzida o'zgacha bir hayajon bor edi. Ko'zları porlab, tishini tishlab, so'zlarni tiliga olib kelolmay turardi"¹. Bu misolda, qahramonning ichki kurash (hayajon) va jismoniy reaksiyalar (ko'zlarining porlashi, tishini tishlab turishi) orqali ifodalangan. Tarjimada bunday eksterlingvistik elementlarni to'liq aks ettirish uchun ingliz tilida "He had a strange excitement on his face. His eyes were shining, his teeth clenched, and he was struggling to find the words." kabi iboralar ishlatalishi mumkin.

Tarjimada mimika va harakatlarning aniq va to'liq aks ettiruvchi muhimdir. Chunki bu harakatlar va ifodalar qahramonning ichki holatini (hayajon, ikkilanish, qaror qabul qilishda qiyinalish) yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyining asarlarida eksterlingvistik vositalar

orqali qahramonlarning ichki hissiyotlari va ruhiy holatlari tasvirlanadi. Bu vositalar orqali ularning xarakteri va harakatlari aniq ko'rsatiladi. "Shu payt, Iskandarning yuzida bir qisqa kulgu paydo bo'ldi. U engilgina jilmayib, gapni davom ettirdi"². Bu erda kulgu va jilmayish qahramonning ichki holatini aks ettiradi. Tarjimada, aynan shu mimikani saqlash uchun "A brief smile appeared on Iskandar's face. He smiled lightly and continued talking." deb tarjima qilinishi mumkin. Bu tarjima qahramonning ichki ruhiy holatini, engil va tinchlashgan hissiyotini saqlaydi.

Jilmayish va kulgu kabi eksterlingvistik elementlarning tarjimadagi to'g'ri aks ettiruvchi qahramonning xarakterini va ruhiy holatini tushunishga yordam beradi.

Abdulla Qahhorning hikoyalarda qahramonlarning ichki tuyg'ulari, nafas olishlari, harakatlar orqali tasvirlanadi. Bu eksterlingvistik elementlar orqali ular o'zlarining ruhiy holatlari va ichki kurashlarini namoyon etadi. Misol uchun: "Qahramon, kuchli bir nafas olib, ko'zlarini yummadi, so'ngra o'zini bosib, yuzini yuvdi"³. Bu iborada nafas olish, ko'zlarini yummashlik va yuzini yuvish orqali qahramonning ichki holati (salbiy hissiyotlar, qayg'u yoki o'zini anglash) aks etgan. Tarjimada bu harakatlarni ifodalovchi ibora sifatida "He took a deep breath, closed his eyes, and then washed his face." deb tarjima qilish mumkin. Nafas olish va ko'zlarini yummashlik kabi eksterlingvistik vositalar qahramonning ruhiy holatiga oid ko'p ma'lumot beradi. Bu elementlar tarjimada ham o'zining o'rnni topishi kerak.

Muhammad Yusufning she'rlari ko'pincha figurativ va tashqi ko'rinishdagi detallar orqali qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlaydi. Bu turdag'i ifodalar eksterlingvistik vositalar sifatida keng qo'llaniladi. Misol: "Yuzimga qaraganingda, go'yo elkamda tog'larni ko'rib turibman"⁴. Bu misolda, tashqi ko'rinishda yuzga qarash orqali qahramonning ichki holati (tashvish, og'irlik hissi) ifodalanoqmoqda. Tarjimada bunday ifodani "When you look into my face, it feels like I am carrying mountains on my shoulders" deb tarjima qilish mumkin. Tashqi ko'rinishdagi bu kabi tasvirlar orqali qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda tarjimachi figurativ va symbolik ifodalar yordamida tarjima qilishi lozim. Tarjimon bu holatni to'g'ri aks ettirish uchun tilning barcha imkoniyatlaridan foydalaniшi kerak.

Tadqiqot metodologysi. Romanda ota-onha orzusi tufayli Zaynabga uylangan Otabekning yangi kelinga beparvoligi, sovuq munosabatlari kuzatgan O'zbek Oyimning xunob holati tasviri kinetik vosita orqali tasvirlanadi:

...O'g'lining miridan sirini ajratib o'lturg'uchi ona yana olazarak og'rig'ig'a yo'liqdi. ...O'zbek Oyim ich-etini eb, yutkan luqmasining

¹ Madumarov, M. M. (2022). Usage of words in Abdullah Qadiri's works. Innovations in Technology and Science Education,

² Madumarov, M. M. (2023). Abdulla's creativity and expression of the national spirit. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 908-914.

³ Madumarov, M. M. (2023). Translation of the imagery of nature in the novel "Days Gone By" by Abdullah Qadiri. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.

⁴ Madumarov, M. M. (2024). Cultural adaptation and symbolism in translating heroic figures. IMRAS, 7(5), 541-550.

mazasini ham bilmas, qisqasi o'lturish so'zsiz, go'yo tussiz va ma'nosiz edi⁵.

"O'tkan kunlar" romanini ingliz tiliga tarjima qilishda ikki madaniyat o'rtaсидаги тағовут ко'п hollarda milliy urf-одат hamda qadriyatлarda namoyon bo'ladi. Bu muammo g'ayrilisoniy ekanligi va asliyat va tarjima kitobxonlari qadriyatларидаги farq bilan belgilanishini yaxshi tushungan mutarjim O'zbek Oyimning ruhiy holtini adekvat bera olgan:

...the mother, completely obessesedwith analyzing her sons every move, was taken over by the need to look at him compulsively... Uzbek Oyim continued to eat her inside out, swallowing food now tasteless to her; it seems as if her disquiet left life with no flavor or meaning⁶.

Abdulla Qodiriy asarda personajlar xarakterini, xulqini namoyon qiluvchi ekstralivingistik vositalardan ham mohirona foydalangan:

Erining bu so'ziga O'zbek Oyim ortiqcha qizishadir, labi-labiga tegmay bobillab beradir⁷...

The words of Uzbek Oyims husband made her fly into a rage, her shouts contorting her mouth into a snarl⁸.

O'zbek Oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi⁹.

Uzbek Oyim slipped unheeded and winked at Hajji¹⁰.

O'zbek Oyimning eriga o'tkirligi, chala-dumbul tabiatи qahramon hissiy kechinmalarini paralingvistik tarzda ifodalash orqali ochib berilgan.

Asar voqealari rivojida endigina Xomid xotinbozning tuxmatlaridan qutulib, Kumushi bilan o'tkaza boshlagan Otabekning nurli kunlariga soya solib O'zbek Oyim obrazi kirim keladi. Romanning ikkinchi bobি hisoblangan "Ota-onha orzusi" bo'limida uch oylab ko'rmagan farzandini kutib olgan O'zbek Oyim harakteri ekstralivingistik vosita orqali yorqin aks ettiriladi:

Uch oylab ko'rmagan o'g'lini quchog'ig'a olib ko'rismak o'rniga undan yuzini o'gurib, san kimsan, keldingmi, deb so'ramadi va salomiga alik olmadni. Go'yo uxlamoqchi bo'lgan tovuqdek hurpayib oldi¹¹.

Instead of hugging her son, who had not seen for three months, Uzbek Oyim turned her face from him, not asking how he fared, if he was well, and remaining stone in reply to his greetings. She seemed like a hen ruffling her feathers in contempt¹².

Otabek ... Marg'ilonga jo'nab soladir. Tag'in O'zbek Oyimning rangi o'chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho'michni piyolaga uring dodu faryodi: "Siz otamisiz, nimasiz axir¹³....

Otabek... left for Margilan. Again, Uzbek Oyims blood boiled in her vein as she broke dishes, plov cups, and a ladle for drinking tea..."Are you a father or not?"¹⁴

Bu yerda tovoq, kosa, cho'mich kabi milliy buyumlar tarjima qilishda qiyinchilik tug'dirganligi uchun ingliz tiliga ularning shakli emas, mazmuni ko'chganligini ko'ramiz. Ya'ni dishes, plov cups, a ladle deya o'girilgani, O'zbek Oyim xarakterini ochib beruvchi paralingvistik holatlar mazmuni inglizchada ham saqlab qolningan.

Asarda Xomidning razil ishlarini amalga oshirishga ko'mak bergan poraxo'r amaldor Qo'rleshining xarakteri —olchoqligi, ochko'zligi, xarom pulga o'chligi ekstralivingistik vosita asosida ochib berilgan:

Homid ... oltinlarni sanab tushira berdi. Qo'rleshining ko'zi oltinlar ustida o'yinab ... sanoqqa ishonmay ko'rib turg'anim tushmi, deb... Homid oltinlarni uzatdi...

Qo'rleshni titrab, qaxshab oltinlarni joyladidi¹⁵

Hamid...beginning to count out gold coins from one hand to the next. The qorboshi eses plaed upon these gold coins...he felt as if he was seeing a mirage, not believing the quantity of gold coins...Hamid handed the gold coins....

...hands shaking, the qorboshi placed the coins in his chance purse.¹⁶

"O'tkan kunlar" romanini yaratilgan zamin madaniyatini bilan inglizzabon kitobxon madaniyatini me'yorlarining bir-biridan uzoqligi omilining tarjima jarayoniga ta'siri sezilarli ekanligi ko'inib tursa-da, qo'rleshining ruhiy xolati tarjimada ishonarli chiqqan.

Muallif O'zbek Oyimning o'tkir xarakterini ochishda davom etadi:

⁵ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

⁶ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

⁷ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

⁸ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

⁹ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁰ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹¹ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹² Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹³ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

O'zbek Oyim kelib kirdi va o'lturmasdanoq hojiga imlab qo'ydi. Bu imqo'qni Otabek payqamagan bo'lsa ham lekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishiga ko'zi etib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi.¹⁷

"imlab qo'ydi", "imqo'q" ekstralivingistik vositalari tarjima tiliga "signalling" tarzida ko'chgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, tarjima jarayonining ikki bosqichi - asliyatga yondashish va uni qayta yaratish o'zaro ajralmas, doimo o'zaro almashinib turuvchi jarayon bo'lsa ham, aksar hollarda ayni qayta yaratish bosqichi mutarjim uchun qiyinchilik tug'diradi, ya'ni u asliyatni tushungani darajasida o'gira olmasligi mumkin. Lekin ayni o'rinda asliyatga yondashish bosqichining o'zi ham alohida ahamiyat va diqqat talab etadi. Zero, "O'tkan kunlar" kabi tarixiy romanlarni tushunish-o'zlashtirishning o'zi nisbatan qiyin kechadi.

Hassos yozuvchi Abdulla Qodiriy roman personajlari mavqeい, hayotdagи o'rnini yoritib beruvchi ekstralivingistik vositalardan ham o'rnida foydalangan:

— Xudoga shukur, davlatlari ko'lankasida,- deb qo'rleshni tavozi'landi va qo'l qovushtirib qushbegining yoniga cho'kkaladi.¹⁸

Qo'rleshining tana harakatlari (tavozi'landi, cho'kka tushdi) orqali qushbegining mavqeい, darajasi ifodalangan bu holat inglizchaga quyidagicha tarjima qilingan:

- "Thanks God the are under the benevolent shadow of your state," said the qorboshi, paying homage nervously by clenching his hands and kneeling at Qushbegi's feet.¹⁹

Mutarjim Mark Risning bu erdagи mahorati shundaki, u ta'zim qilib, cho'kka tushgan qo'rleshni holati tarjimasida *kneeling* so'zini ishlatsiz bilan asliyat ekspressiyasini kuchaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Abdulla Qodiriy asarda qalamga olingan davr tarixiy mohiyatini ochib berar ekan davr ruhiga mos voqeа — Toshkent hokimi Azizbekning Qo'qonga qarshi bosh ko'tarishi voqeasini yoritadi. Yozuvchi tarixiy voqealarga xarakterlar orqali jon beradi. Karakter yaratish tarixiy vogelikni estetik o'zlashtirishning muhim shartlaridandir. Azizbekning Yusufbek hojidek iymonli, dono insonga muomalasi misolida uning xulq-atvori ko'rsatadi:

Hoji so'zini tugata olmadi, hojining ters so'ziga chidalmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi:

— Nima deysan?²⁰...

Hajji was not allowed to finish his thoughts. Azizbek could not no longerstand to hear a counterargument and screamed savagely,

- "What are you saying?"²¹.

Tarjimada personaj ruhiy-hissiy holati fonatsion vosita orqali (vahshiylarcha hayqirdi - screamed savagely) ifodalanim, nutqning sifati o'zgargani zolim kummdora xos xarakterni gavdalantiradi.

Taxillardan ko'rinadiki, tarjimon Mark Ris asliyatdagи imoshoralar, harakatlar orqali qahramonlar xarakterlari, xulq-atvori, ichki dunyosi mohirona ochib berilgan ekstralivingistik, kinetik vositalarning badiiy asardagi vazifasi muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushungan va tarjimada adekvat bera olgan. Zero, kishi (tana) harakatlari, imo-ishoralar tasvirining tarjimada berilishini o'rganish asar badiiyati tarjimasiga baho berishga imkon beradi.

Abdulla Qodiriy azim ist'e-dodi, dunyoqarashi, mahorati o'larоq noverbal vositalarning lisoniy ifodalarini tanlab ishlatsiz holda personajlar haraketerini ochib berishda imo-ishoralar, harakatlar, fonatsion va kinetik vositalar tasviridan unumli foydalangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida milliyligi jihatidan "o'zbek entsiklopediyasi" darajasini qariyb bir asrdan beri egallab kelayotgan shoh asarni inglizzabon o'quvchiga etkazishdek murakkab ishga qo'l urgan mutarjim Mark Ris tarjimada romandagi ekstralivingistik vositalar tasvirini alohida e'tibor bilan o'girganligi uning teran mushohadaga ega ekanligini anglatadi.

Yuqoridagi mushohadalardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelamiz:

"O'tkan kunlar" romanidek milliylik ufurib turgan romanda qo'llangan noverbal vositalarni tarjimada mukammal aks ettirish g'oyat

¹⁴ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹⁵ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁶ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹⁷ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁸ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁹ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

²⁰ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

²¹ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

ahamiyatli bo'lib, tipologik uzoq madaniyat o'quvchisiga yozuvchi niyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Roman tarjimasidagi milliy o'ziga xoslikni aks ettirishning ekstralringvistik masalalari taxlili noverbal vositalar estetik butunlikning bir qismi ekanligini dalillaydi.

Imo-ishora, kishi (tana) harakatlari asar qaxramonlarining ruhiyatini, his-tuyg'ularini olib berishda ahamiyatli bo'lib, ularni tarjimada aks ettirish muhim sanaladi.

Romandagi obrazlar xarakterini, xulq-atvorini aks ettiruvchi ekstralringvistik vositalar tarjimasi tarjima o'quvchisi tasavvurini boyitadi, xarakterlarni to'la namoyon bo'lishiga imkon beradi.

... Otabeknima uchundir g'ayri-ixtiyoriy bir tebrandi.Uning yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi.²²

O'quvchiga noma'lum voqeа natijasida Otabek ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarish tarjimada ham olib berilgan:

Tarjimasi:

Rahmat, attempting to keep the conversation from falling into a lull again, declared to Otabek, "There is a girl in Margilan... Such a beauty! I think she has no equal; in all our city, I have never seen no beauty to rival her own." ...his house is situated on the corner of the shoe market...

...Perhaps," said Otabek, seized by involuntary shiver as if chilled by an unseen draft. His face shifted from its usual calm to strange, slight swaying from side to side.²³

Tarjimon Otabekning imo-ishorasi, gavda harakatlari e'tibor bilan o'girganligi natijasida qahramon xarakteri, hissiy holati haqida fikrlari boyitishga erisha olgan.

Muallif Otabekning ruhiy, hissiy holatini ifoda etuvchi informativ-xarakterlovchi nolisoniy vositalardan mohirona foydalanadi:

...Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshibi ochilg'anidan, sham' yoqilib, o'rin yozilg'anidan go'yo xabarsiz kabi ustung'a suyalg'ancha qotib turar edi...Biroq Otabek to'shagi yonig'a o'lturdi-da, yana o'ylab qoldi...²⁴

Asliyatda qahramon ruhiyatida ro'y berayotgan bu o'zgarish ingliz kitobxoniga quyidagicha etkazilgan:

Yet, strangely, Otabek remained outside for sometime and even the door to their cell finally opened, Otabek still lingered in the doorway...Otabek continued to sit on his bedding, his mind deep in some trance.²⁵

Tadqiqot natijalari. O'zbek adabiyotining klassik asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda ekstralringvistik vositalarning muhimligini ko'rishimiz mumkin. Noverbal elementlar – imo-ishoralar, harakatlari va tili – tarjimadan butunlay chiqarib tashlanmasdan, o'z ma'nosini va hissiy ruhiyatini aks ettiradi. Tarjimada bu vositalarni moslashda madaniyatlararo tafovutlar e'tiborga olinadi. Madaniyatlararo farqlarni hisobga olish, tarjimaga yondashishning asosiy qismi bo'lishi kerak. Asliyatdagи milliy xususiyatlar, masalan, O'zbek Oyimning o'ziga xos harakatlari, tananing yoki ovozning ifodasi, ingliz tiliga qarab qayta ishlab, uning hissiy ma'nosi saqlanishi lozim. Mark Ris, bu jarayonda milliy tafovutlarni yodda tutgan holda, tarjimada muvofiqlikni ta'minlagan. Otabek, O'zbek Oyim kabi personajlarning ruhiy holatini ochishda noverbal vositalar juda muhim. Tarjimon, asliyatdagи voqealarning va personajlarning ruhiy holatlarini, ularning ichki kechinmalarini to'g'ri aks ettirishda muvaffaqiyat qozongan. Bunda paralingvistik va kinetik vositalardan foydalanish juda muhim. Tarjima jarayonida noverbal vositalarni to'liq aks ettirish – bu faqat matnni o'girishdan iborat emas, balki uning hissiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini saqlab qolishdir. Tarjimon, asliyatdagи ma'no, tuvush, harakatlarni saqlab qolgan holda, ularni moslashtirgan. Tarjimada noverbal vositalarning to'g'ri o'girilishi, personajlarning xarakteri va ruhiy holating chuqurroq tushunilishiga imkon beradi. Bu esa, romanlarning ingliz tilidagi o'qilishi va qabul qilinishini anche osonlashtiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.
2. Abdulla Qodiriy. (2014). O'tkan kunlar: Tanlangan asarlar. Sharq.
3. Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

²² Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

²³ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

Muxokama. "O'tkan kunlar" romanining tarjimasi orqali ekstralringvistik vositalarning (imo-ishoralar, harakatlari, fonatsion va kinetik vositalar) ta'siri va ularning ingliz tiliga qanday o'zgarganini tahlil qilish, adabiy tarjimaning qiyinchiliklari va murakkabliklari ko'rsatadi. Tarjima jarayonida asosiy vazifa, asliyatdagи noverbal vositalarning ma'nosini, o'ziga xosligini va uning ruhini boshqa tilga to'liq o'tkazishdir. Ekstralringvistik vositalar (imo-ishoralar, harakatlari, tana tilini ifodalovchi elementlar) adabiy asarlarning personaj xarakterlarini yaratishda, voqealarning dramatik tusini kuchaytirishda, ruhiy holatlarni ochishda muhim rol o'ynaydi. Bu vositalar orqali, asar voqealarning o'qigan kitobxon, personajlarning ichki dunyosini yaxshiroq anglaydi. Tarjima jarayonida esa, madaniy farqlar, til va uslubdagi tafovutlar tarjimaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbek Oyimning harakati yoki ifodalarini kabi milliy xususiyatlarga ega noverbal vositalar ingliz tiliga o'girilganda, ularning aniq va to'liq ma'nosi saqlanib qolishi kerak. Bu jarayonda, tarjimonning noverbal elementlarni, ya'ni tana harakatlari, so'zlarning ohangini va paralingvistik vositalarni aniqligi muhimdir. Mark Risning tarjimasi, bu elementlarni muvaffaqiyatlari o'girib, asliyatdagи hissiy holatlarni, personajlarning ichki kechinmalarini ingliz tilida aniq aks ettirganini ko'rsatadi.

O'tgan kunlar romanida tarjimaning murakkabligi, asosan, milliy xususiyatlar, urush davridagi madaniy tafovutlar va noqonuniy yoki boshqa ijtimoiy normalar bilan bog'liq. Misol uchun, O'zbek Oyimning ruhiy holatini aks ettiruvchi harakatlari, asliyatda chuqur madaniy ma'no kasb etadi. Tarjimada esa bu ma'no, ingliz tiliga qarab to'liq tushuniishi uchun, ijtimoiy va madaniy farqlarni hisobga olish zarur.

Xulosa. "O'tkan kunlar" romanining ingliz tiliga tarjima qilingan nusxasida qahramonlarning xarakterini ochishda qo'llangan ekstraparalingvistik vositalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Xususan, asarda O'zbek Oyimning emosional va ruhiy holatlari, uning o'g'li bilan munosabatlari va olibayli muammolarini kinetik va ekstraparalingvistik vositalar orqali tasvirlanadi.

Tarjima jarayonida ikki madaniyat, ya'ni o'zbek va ingliz madaniyatlarini orasidagi farqlar, milliy urf-odatlar va qadriyatlar o'rtasidagi muammolar ko'p hollarda o'z ifodasini topadi. Bu masalalar, tarjimon Mark Rizz tomonidan muvaffaqiyatlari hal qilinib, O'zbek Oyimning hissiy holatlari va ichki dunyosini ingliz tilida ham o'ziga xos tarzda aks ettirgan. Ekstraparalingvistik elementlar, masalan, jismoniy harakatlari, ishoralar va makoniy havolalar tarjimaga shunday tarzda kirkangi, ularning mazmuni asliyatdagи ma'noni saqlab qolgan.

Maqolada shuningdek, ekstraparalingvistik vositalarning badiiy tarjimada qanday rol o'ynashi, ularning qahramonlarning ichki dunyosini va hissiy holatlarni qanday ifodalashdashgi ahamiyatini tahlil qilinadi. Misol uchun, O'zbek Oyimning o'g'li uch oy kutib, uni ko'rganidan keyingi reaksiyasi orqali uning ichki holati tasvirlanadi. Bu kabi holatlar tarjimaga ekstraparalingvistik vositalar orqali ko'chirilgan va asliyatning ruhi saqlangan.

Bundan tashqari, maqolada Qorboshining xarakteri va uning mas'uliyatlari pozitsiyasi ham ekstraparalingvistik vositalar orqali olib berilgan. Uning oltinlarni sanash va qo'rquvli harakatlari orqali uning ochko'zligi va pullarga bo'lgan ishtiyoqi tasvirlangan. Tarjimada bu harakatlari to'g'ri aks ettirilgan, natijada asar ruhining saqlanishiga erishilgan.

Xulosa qilib aytganda, maqola ekstraparalingvistik vositalarni tarjimada tahlil qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular asar mazmunini, qahramonlarning ichki dunyosini va hissiy holatlarni to'liq va aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Tarjima jarayonida bu vositalarni aniq va to'g'ri tarzda ko'chirish, tarjimonning mahoratini va asar mazmunini to'g'ri tushunishini ko'rsatadi. Abdullah Qodiriyning asaridagi ekstraparalingvistik vositalar, ayniqsa, milliy xususiyatlarni, personajlarning xulq-atvorini va ularning ruhiy holatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

4. Axmadjonov, A., & Sultonova, G. (2024). "CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING" (CLIL) METODINING INGLIZ TILINI O'QITISHDA QO'LLANILISHI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 278–280. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1075>

²⁴ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

²⁵ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

5. Begmatov, A. (2024). STUDY OF ONOMASTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(12), 274–280. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N43>
6. G'ulomov, J. (2024). SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O'XSHASHLIK VA FARQLAR. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 202–204. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1056>
7. Husayniy, A. (1981). *Бадойиъу-с-санойиъ* (A. Rustamov, Trans.). Adabiyot va san'at.
8. Khabitovich, O. B., & Alisherovna, K. D. (2023). Derivation Tools For Geology-Related Terms In English And Uzbek Languages. *Onomázein*, (62 (2023): December), 2106-2112.
9. Kiličeva, M. R. (2011). Адабиёт ва туш. Адабиётшунослик ва бадиий таржима муаммолари илмий мақолалар тўплами (pp. 167–169). Buxoro.
10. Kiličeva, M. R. (2011). Шекспирнинг «Юлий Цезар» трагедиясида тушнинг бадиий вазифалари. Адабиётшунослик ва бадиий таржима муаммолари илмий мақолалар тўплами (pp. 24–26). Buxoro.
11. Madumarov, M. M. (2022). *Andragogical education: Ways to use fiction translations in learning English*. Innovations in Technology and Science Education
12. Madumarov, M. M. (2022). *Usage of words in Abdullah Qadiri's works*. Innovations in Technology and Science Education,
13. Madumarov, M. M. (2023). *Abdulla's creativity and expression of the national spirit*. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 908-914.
14. Madumarov, M. M. (2023). *Translation of the imagery of nature in the novel "Days Gone By" by Abdullah Qadiri*. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.
15. Madumarov, M. M. (2024). *Cultural adaptation and symbolism in translating heroic figures*. IMRAS, 7(5), 541-550.
16. Madumarov, M. M. (2024). *Exploring translation techniques for heroic characters in literature*. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(5), 141-149.
17. Madumarov, M. M. (2024). *Extralinguistic devices in character development and translation*. Kokand University Research Base, 173-179.
18. Madumarov, M. M. (2024). *Translation of stylistic devices in the English translation of Abdullah Qadiri's novel Days Gone By*. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(5), 141-149.
19. Nazarova, G. P. (2016). Ingliz uyg'onish davri adabiyotida odalar va ularning xususiyatlari. Чет тилларни ўқитишда коммуникатив ёндашув: тил, тафакур, маданият (pp. 81–84). Buxoro.
20. Nazarova, G. P. (2019). Brief look at the Uzbek women mythological characters. *Adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va komparativistika: Maqola va tezislardan to'plami*. Navro'z nashriyoti.
21. Niyozí, H. H. (1935). Asar nomi. Toshkent: O'zbekistan nashriyoti.
22. Otto, M., & Thornton, J. (2024). SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O'XSHASHLIK VA FARQLAR. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 202-204.
23. Oybek, E. (2024). THE ISSUE OF TOLERANCE IN THE HISTORY OF RELIGION. Academia Repository, 5(2), 77-81.
24. Oybek, E., & Shaxzod, X. (2023). Qiyosiy dinshunoslikning nazariy-metodologik masalalari. Ta'liming zamonaviy transformatsiyasi, 1(2), 968-972.